



THE IMPORTANT ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE SAMARKAND INSTITUTE OF ARCHAEOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK ARCHAEOLOGY (1970-2025)

Akhadulla Rakhmatullayev

Deputy for Academic Affairs

Jizzakh Region Pedagogical Skills Center

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Samarkand Institute of Archaeology, Archaeology of Uzbekistan, Ancient Studies, Archaeological Research, Afrosiyob, Kampirtepa, Poykent, historical heritage, international cooperation, archaeological expeditions, GIS technologies, development of archaeological science.

Received: 26.04.25

Accepted: 28.04.25

Published: 30.04.25

Abstract: This article analyzes the contribution of the Samarkand Institute of Archaeology to the development of ancient studies and archeology in Uzbekistan during the period 1970–2025. The founding, early archaeological researches, scientific achievements, international cooperation projects, activities in the preservation and popularization of the cultural heritage are fully covered. At the same time, information was also provided about the current state of the institute and its future priorities. The article pays special attention to the scientific research of historical objects and their provision of the rich historical and cultural heritage of Uzbekistan to the general public.

SAMARQAND ARXELOGIYA INSTITUTINING O‘ZBEKISTON QADIMSHUNOSLIGI TARAQQIYOTIDAGI MUHIM O‘RNI VA AHAMIYATI (1970 - 2025 yillar)

Axadulla Raxmatullayev

Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi

Akademik faoliyat bo'yicha o'rinbosar

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Калит сўзлар: Samarqand arxeologiya instituti, O'zbekiston arxeologiyasi, qadimshunoslik, arxeologik tadqiqotlar, Afrosiyob, Kampirtepa, Poykent, tarixiy meros, xalqaro hamkorlik, arxeologik

Аннотация: Ushbu maqolada Samarqand arxeologiya institutining 1970–2025 yillar davomida O'zbekistonda qadimshunoslik va arxeologiya fanining rivojiga qo'shgan hissasi tahlil etilgan. Institutning tashkil topishi, ilk arxeologik

ekspeditsiyalar, GIS texnologiyalari, arxeologiya fanini rivojlantirish.

tadqiqotlari, ilmiy yutuqlari, xalqaro hamkorlikdagi loyihalari, hamda madaniy merosni saqlash va ommalashtirishdagi faoliyati keng qamrovda yoritilgan. Shu bilan birga, institutning bugungi holati va kelajakdagi ustuvor yo'nalishlari haqida ham ma'lumotlar berilgan. Maqolada tarixiy obyektlarning ilmiy jihatdan tadqiq qilinishi va ular orqali O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosini keng jamoatchilikka yetkazish borasidagi ishlarga alohida e'tibor qaratilgan.

ВАЖНАЯ РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ САМАРКАНДСКОГО ИНСТИТУТА АРХЕОЛОГИИ В РАЗВИТИИ УЗБЕКСКОЙ АРХЕОЛОГИИ (1970–2025 ГГ.)

Ахадулла Рахматуллаев

Заместитель по учебной (академической) деятельности

Центр педагогического мастерства Джизакской области

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Самаркандский институт археологии, археология Узбекистана, древоведение, археологические исследования, Афросиаб, Кампыртепа, Пойкент, историческое наследие, международное сотрудничество, археологические экспедиции, ГИС-технологии, развитие археологии.

Аннотация: В данной статье анализируется вклад Самаркандского института археологии в развитие древоведения и археологии в Узбекистане в период 1970–2025 гг. В полной мере освещены основание, ранние археологические исследования, научные достижения, проекты международного сотрудничества, деятельность по сохранению и популяризации культурного наследия. Вместе с тем, была представлена информация о текущем состоянии института и его дальнейших приоритетах. Особое внимание в статье уделено научному исследованию исторических объектов и предоставлению ими богатого историко-культурного наследия Узбекистана широкой общественности.

O'zbekiston xalqining umummilliy boyligi hisoblanadigan madaniy merosimizni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va undan foydalanish borasida mamlakatimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Muhtaram yurtboshimiz SH.M.Mirziyoyev 2018-yil 19-dekabrda "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarolarida moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, ilmiy o'rganish, ulardan oqilona foydalanish va yurtimizning sayyohlik salohiyatini oshirishda ularning o'rni va ahamiyatini oshirish hamda moddiy madaniy meros sohasidagi davlat nazoratini tubdan takomillashtirish maqsadida moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastrini yuritish, tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan obyektlarni aniqlash, ularni

hujjatlashtirish va davlat hisobiga olish, moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari toifalari va qo'riqlanadigan tegrallarini belgilash, shuningdek, ulardan oqilona foydalanilishi haqida topshiriq berganlar.

O'zbekiston jahon sivilizatsiyasining yirik beshiklaridan biri sifatida katta tarixiy va madaniy merosga egadir. Mamlakatimiz hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tufayli ko'plab qimmatli tarixiy ma'lumotlar kashf etildi. Bu yo'nalishda faoliyat olib borayotgan ilmiy muassasalar orasida Samarqand arxeologiya instituti alohida o'rin tutadi. 1970 yilda tashkil etilgan mazkur ilmiy muassasa O'zbekistonda qadimshunoslik va arxeologiya fanining shakllanishi, rivojlanishi va xalqaro miqyosda tan olinishiga beqiyos hissa qo'shgan.[1]

Samarqand arxeologiya instituti o'z faoliyatini 1970 yilda boshlab, dastlab SSSR Arxeologiya institutining O'zbekistondagi bo'limi sifatida faoliyat yuritgan. Institutning tashkil topishi zamirida mamlakatimizda arxeologik tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj, tarixiy merosni o'rganish va himoya qilishga bo'lgan ehtirom yotar edi. Ilk yillarda institut tomonidan asosan Afrosiyob, Qo'rg'ontepa, Mingtepa kabi yirik arxeologik obyektlarda ishlar olib borildi. Bu qazishmalar O'rta Osiyo tarixini qayta yozishga sabab bo'lgan muhim kashfiyotlarga olib keldi. Arxeologiya instituti O'zbekistonda olib boriladigan arxeologik tadqiqotlarga ilmiy-metodik rahbarlik qiluvchi markaz bo'lib, respublika hududidagi barcha moddiy madaniyat yodgorliklarida qazish ishlari olib borish uchun ruxsatnoma beradi.[2] O'z tadqiqotlarini O'zMU, Samarqand Davlat Universiteti, O'zbekiston Badiiyot akademiyasi San'atshunoslik instituti, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Tarix instituti va boshqa ilmiy muassasalar bilan muvofiqlashtirib olib boradi. Arxeologiya instituti xalqaro ilmiy dasturga binoan respublikaning qator viloyatlarida Fransiya, Germaniya, Polsha, Italiya, Rossiya kabi mamlakatlar ilmiy markazlari bilan hamkorlikda arxeologik qazishmalar olib boradi (1984-yildan). Institutda tosh davri arxeologiyasi, Turon arxeologiyasi, Movarounnahr arxeologiyasi, ilmiy ishlab chiqarish bo'limlari; tarixiy yodgorliklarning kimyoviy va texnologik tadqiqoti hamda konservatsiya qilish laboratoriyasi, kutubxona (55 mingdan ortiq asar) bor; Toshkent, Xiva va Termiz arxeologiya bo'limlari tuzilgan. 7 fan doktori (3 akademik), 35 fan nomzodi, jami 90 ilmiy xodim ishlaydi. Institut "O'zbekiston moddiy madaniyati tarixi" nomli yillik to'plam nashr etadi (1959-yildan). U o'z faoliyatida arxeologik tadqiqotlarga bag'ishlangan 120 ta ilmiy monografiya (5 tasi ajnabiy tillarda) va turli jurnal va to'plamlarda mingdan ortiq maqolalar chop etdi.[3]

1970–2025 yillar davomida institutning ilmiy jamoasi tomonidan mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida arxeologik tadqiqotlar amalga oshirildi. Ular orasida Termiz, Poykent, Topraqqal'a, Kampirtepa, Kuva va boshqa joylardagi tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu ishlar natijasida tarixiy shaharlar arxitekturasi, iqtisodiyoti, aholisi va madaniyati haqida boy ma'lumotlar to'plandi. Afrosiyobda topilgan devoriy tasvirlar, Kampirtepa xarobalari va

boshqa arxeologik topilmalar nafaqat milliy, balki xalqaro ilmiy doiralarda ham katta qiziqish uygʻotdi.[4]

Institut tomonidan oʻtkazilgan tadqiqotlar nafaqat moddiy yodgorliklarni aniqlash, balki ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish, tarixiy davrlar oʻrtasidagi bogʻliqlikni aniqlash, xalqlar oʻrtasidagi madaniy aloqalarni ochib berishga xizmat qildi. Koʻplab ilmiy maqolalar, monografiyalar, albom va kataloglar nashr etildi. Institut bazasida arxeologiya yoʻnalishida yetuk kadrlar tayyorlash tizimi yoʻlga qoʻyildi.

Samarqand arxeologiya instituti dunyodagi yetakchi ilmiy markazlar bilan hamkorlikni yoʻlga qoʻygan. Fransiya, Yaponiya, Rossiya, Koreya, Germaniya, Xitoy kabi davlatlar olimlari bilan qoʻshma ekspeditsiyalar tashkil etildi. Jumladan, Fransiyaning Luvr muzeyi, Yaponiyaning Kyusyu universiteti bilan qoʻshma loyihalar samarali boʻldi. Bu hamkorliklar natijasida texnikaviy jihatdan zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan laboratoriyalar, 3D vizualizatsiya texnologiyalari va yadroviy datirovka kabi ilmiy yutuqlar Oʻzbekiston tadqiqotchilari uchun ham qoʻllanila boshlandi.

Institut nafaqat ilmiy tadqiqotlar, balki arxeologik topilmalarni saqlash, qayta tiklash va muzeylashtirish borasida ham faol ish olib bormoqda. Uning tashabbusi bilan viloyatlarda arxeologiyaga ixtisoslashtirilgan muzeylar tashkil etildi, topilmalar keng jamoatchilikka taqdim etildi. Shuningdek, tarixiy manbalarni maktab va OTM darsliklariga kiritish boʻyicha ham institut mutaxassislari faol ishtirok etdi.[5]

Bugungi kunda Samarqand arxeologiya instituti Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi yetakchi ilmiy markazlardan biri hisoblanadi. Unda arxeologiya, tarix, etnografiya, antropologiya yoʻnalishlarida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Yaqin kelajakda arxeologik maʼlumotlarni raqamlashtirish, yodgorliklarni GIS texnologiyalari orqali monitoring qilish, yosh kadrlarni xalqaro tajriba asosida tayyorlash kabi yoʻnalishlar rejalashtirilgan.[6]

Xulosa qilib aytganda Samarqand arxeologiya instituti 1970–2025 yillar davomida Oʻzbekistonning tarixiy merosini oʻrganish, saqlash va ommalashtirish borasida ulkan ishlar amalga oshirdi. Uning faoliyati orqali qadimgi sivilizatsiyalar tarixi ochildi, yangi ilm-fan sohalari rivojlandi, mamlakatimizning xalqaro ilmiy maydondagi nufuzi ortib bordi. Institut kelgusida ham tarixni qayta kashf etish va yangi avlodga yetkazish yoʻlida xizmat qilishda davom etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.03.2019 yildagi 265-son qarori
2. Абдуллаев К.А. Историческая топография Самарканда и археологические исследования Афрасиаба. – Ташкент: Фан, 1983.
3. Allchin, F.R. & Hammond, N. (Eds.). The Archaeology of Afghanistan. – London: Academic Press, 1978.

4. Бернштам А.Н. История культуры древнего Узбекистана. – Москва: Наука, 1979.
5. Булатов М. Кампиртепа – порт античного Термеза. – Ташкент: Фан, 2011.
6. Francfort, H.P. La Bactriane antique. – Paris: CNRS Editions, 1985.
7. Isomiddinov M. Arxeologiya O‘zbekiston. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005.